UDK:811.512.133’367.625 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss3/a71**

BADIIY MATNNING ASSOTSIATIV MAYDON TAHLILI (Nazar Eshonqul hikoyasi misolida)

ANALYSIS OF ASSOCIATIVE FIELD OF ARTISTIC TEXT (On the example of Nazar Eshanqul's story)

АНАЛИЗ АССОЦИАТИВНОГО ПОЛЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА (На примере рассказа Назара Эшанкула)

Nasirov Muslimjon Maxsutali o‘g‘li[1]

[1]**Nasirov Muslimjon Maxsutali o‘g‘li** −QDPI, O‘zbek tili kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya

Maqolada badiiy matn yaratilishidagi verbal assotsiativ birliklar Nazar Eshonqul hikoyasi misolida antroposentrik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Maqola davomida lingvopoetik, assotsiativ, analiz hamda sintez tahlil metodlaridan foydalanilgan. Olamning lisoniy manzarasi hamda ijodkor badiiy tafakkuridagi verbal assotsiatsiyalarning o‘zaro aloqasi o‘rganilib, badiiy matnning assotsiativ maydoni hosil qilingan.

Аннотация

В статье глагольные ассоциативные единицы при создании художественного текста интерпретируются с антропоцентрической точки зрения на примере повести Назара Эшанкула. В статье использованы лингвопоэтический, ассоциативный, аналитический и синтетический методы анализа. Анализируется взаимосвязь языковой картины мира и словесных ассоциаций в творческом художественном мышлении для создания ассоциативного пространства художественного текста.

Abstract

In the article, the verbal associative units in the creation of a literary text are interpreted from an anthropocentric point of view on the example of Nazar Eshanqul’s story. Linguopoetic, associative, analytical and synthesis analysis methods were used throughout the article. The interrelationships between the linguistic picture of the world and the verbal associations in creative artistic thinking are analyzed to create an associative space for the literary text.

Kalit so‘zlar: *antroposentrik tilshunoslik, assotsiativ tilshunoslik, stimul so‘z, assotsiat, assotsiativ maydon, maydon yadrosi, badiiy matn, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar.*

Ключевые слова: *антропоцентрическая лингвистика, ассоциативная лингвистика, слово-стимул, ассоциация, ассоциативное поле, ядро поля, художественный текст, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы.*

Key words: *anthropocentric linguistics, associative linguistics, stimulus word, association, associative field, field core, literary text, linguistic factors, extralinguistic factors.*

KIRISH

Antroposentrik tilshunoslikning tilni undan foydalanuvchi shaxs omili bilan bog‘liq holda o‘rganuvchi mustaqil tarmoqlaridan biri assotsiativ tilshunoslikdir. Assotsiativ tilshunoslikda til nafaqat o‘zaro munosabatdagi birliklar yig‘indisidan tashkil topgan tizim sifatida, balki bir-biri bilan assotsiativ bog‘langan verbal tarmoq sifatida ham tasavvur etiladi. “Assotsiatsiya” so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, “associato” - “qo‘shish”, “biriktirish” degan ma’nolarni anglatadi. Tildagi assotsiatsiyalarga ilk bor nemis olimi V.Humbolt munosabat bildirgan. [2,11]

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, verbal assotsiatsiyalarga xos xususiyatlardan biri ularning turli nutqiy tuzilmalarning yaratilishiga yo‘l ochishidir. Boshqacha aytganda, har qanday nutqiy tuzilma uchun o‘zaro assotsiativ bog‘langan til birliklari tayanch vazifani o‘taydi. Har qanday til birligi, u qanday grammatik shakl yoki ma’noga ega bo‘lmasin, inson xotirasida turli omillarga bog‘liq holda qandaydir leksik birliklar yoki boshqa sath birliklarini yodga tushiradi, ular bilan assotsiativ bog‘lanadi. [3,28]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

D. Lutfullayeva “Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi” nomli monografiyasida tilga assotsiativ yondashuvning mohiyati, shakllanish tarixi, assotsiativ munosabatlar, verbal assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishi, lingvistik mohiyati, verbal assotsiatsiayalar tasnifini ochib bergan. Ushbu tadqiqotning “Verbal assotsiatsiyalarning matn hosil qilishdagi o‘rni” nomli bobi bevosita bizning maqolamiz bilan bog‘liqdir. Bundan tashqari ushbu asarda matnning assotsiativ maydoni E.Vohidov va A.Navoiy asarlari misolida tahlil qilingan.

D.Xudoyberganova assotsiatsiyalarning hosil bo‘lishini so‘z ma’nosi va so‘zga xos xususiyatlar bilan bog‘laydi. Uning fikricha, “inson o‘z xotirasida so‘zlarning ma’nolari bilan birga ularning obyektiv olamdagi sezgi a’zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi ma’lumotlarni ham saqlaydi. Shu sababli muayyan so‘z uni eshituvchi odam xotirasida ma’lum assotsiatsiyalarni paydo qiladi”.[3,101]

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Badiiy matnda qo‘llangan assotsiativ munosabatdagi birliklar tahlili orqali ijodkorning voqelikni idrok etishi va u haqidagi tasavvurlari, leksik zahirasi, zahira ko‘lami hamda tarkibi, ijodkorning so‘z tanlash mahorati haqida qimmatli bilimlarga ega bo‘lishi mumkin. Bu holat insonning psixologik tasavvuri asosida xotirada bir-birini yodga tushiruvchi assotsiatsiyalarni nafaqat psixologlar, balki tilshunoslar ham chuqur o‘rganishlari lozimligini ko‘rsatadi.[2, 64] Badiiy matnlarni assotsiativ tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda asosiy e’tibor assotsiativ munosabatlarni yuzaga keltiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar va assotsiatlarning stimul so‘z bilan bog‘lanishidagi o‘ziga xosliklarga qaratiladi.

Quyida tahlil uchun tanlangan Nazar Eshonqul hikoyasining sarlavhasi stimul so‘z sifatida ajratib olindi va matn tarkibidagi assotsiatlar ajratildi. Shu asosda hikoyaning assotsiativ maydoni hosil qilindi. Verbal assotsiatsiyalarning matnning fon mavzusini ochishdagi ahamiyatli jihatlari yoritildi. Nazar Eshonqulning "Tobut"[4,117] hikoyasini tahlil qilish davomida stimul so‘z sifatida badiiy matnning sarlavhasini olamiz hamda aynan shu matn tarkibidan unga javob reaksiyasi bo‘lishi mumkin bo‘lgan assosiatlarni ajratib chiqamiz. Demak, **stimul so‘z:** *“Tobut”;* **javob reaksiyalari (assotsiatlar):** *“o‘lim”, “o‘lat”, “balo”, “jon taslim qilishdi”, “emlash o‘tkazish”, “kasalxona”, “vrach”, “yuqumli kasallik”, “tibbiyotimiz”, “hakimlar”, “vahimali”, “tahlikali”, “vahm tolib turgandi”, “lahad”, “o‘lik”, “tangri”, “do‘zax”, “o‘likxona”, “o‘lim elchisi”, “sukunat”, “musibat”, “zambillar”, “arvoh”, “qabriston”, “qo‘rquv”, “mungli”, “hasrat”, “tavba-tazarru qilmoq”, “gunoh”, “murda”, “tobut”,* kabi birliklar. Endi assotsiativ munosabatni yuzaga keltirgan omillarni guruhlarga ajratib chiqamiz. Dastlab lingvistik omillarga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Leksemalarning semantik jihatdan o‘zaro bog‘liqligi: *o‘lim, o‘lik, murda, qabriston, o‘likxona, tobut*
2. Leksemalarning uslubiy belgisiga ko‘ra aloqasi: *hakimlar*
3. Leksemalarning yasalishdagi umumiyligi: *kasalxona, o‘likxona, o‘lik, o‘lim*

Ushbu matnning hosil bo‘lishidagi ekstralingvistik omillarning rolini ko‘rib chiqib, ularni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:


1. Predmet (keng ma’noda)larning makondagi aloqadorligi: *qabriston, lahad, vrach*
2. Predmet va uning belgisi munosabati: *vahimali, tahlikali, vahm to‘lib turgandi*
3. Insonning voqelikka munosabati: *balo, jon taslim qilmoq, do‘zah, o‘lim elchisi, mungli, hasrat, tavba-tazarru qilmoq*
4. Faoliyat egasi va uning mahsuloti aloqadorligi: *lahad, qo‘rquv*
5. Predmetlar orasidagi sabab-natija munosabati: *sukunat, musibat*
6. Predmetlarning tashqi o‘xshashligi: *zambillar*

SH.Iskandarova, “birlashtiruvchi semasiga ko‘ra umumiy bo‘lgan, ammo turli sathlarga mansub birliklar (grammatik va leksik birliklar) yig‘indisini funksional-semantik maydon” deb nomlagan [1; 105]. Assotsiativ maydon ham ko‘p jihatdan funksional-semantik maydonga yaqin turadi. Badiiy matnning assotsiativ tahlilida *matnning assotsiativ maydoni* masalasi muhim o‘rin tutadi. *Matnning assotsiativ maydoni* tushunchasini ilmiy muomalaga SH.Balli kiritgan bo‘lsa, rus tilshunosi Y.N.Karaulov ushbu tushunchaning tilshunoslikdagi mohiyatini yana-da kengroq yoritib bergan. U matndagi so‘z va so‘z birikmalari ketma-ketligi orqali assotsiativ maydonni belgilash tartibi hamda ushbu assotsiativ maydon asosida matn yaratish metodikasini ishlab chiqqan. Assotsiativ maydon matnning assotsiativ strukturasini belgilaydi. Matnning assotsiativ strukturasi asosida matn, uning muallifi hamda ushbu matnning kitobxon tomonidan idrok etilishi jihatlari haqida yangi bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

Ushbu hikoyaning assotsiativ maydonini hosil qilishda asosiy e’tibor javob reaksiyalarini stimul so‘z - *tobut* bilan qay darajada bog‘lana olishiga qarab maydon yadrosi va chetki qismlariga joylashtirishga qaratildi. Shunga alohida e’tibor qaratish kerakki, stimul so‘z bilan bevosita bog‘langan birliklar boshqa birliklarning stimul so‘z bilan bog‘lanishiga ko‘prik vazifasini o‘taydi,

natijada maydondagi barcha birliklarning stimul so‘z bilan bevosita yoki bilvosita bog‘lanishiga olib keladi. Quyidagi chizmadan ko‘rinib turibdiki, *"Tobut"* stimul so‘ziga beriladigan eng yaqin assosiatlar sifatida *"o‘lik", "o‘lim", "murda", "jon taslim qilmoq", "vahimali", “vahm to‘lib turgandi”, "lahad", “musibat”, “arvoh”, “o‘likxona”, “qabriston” “tobut”, “zambillar”* kabi assotsiatlar maydon yadrosini hosil qilib, stimul so‘zga yaqin joylashtirilsa, *“o‘lat”, “balo”, “emlash o‘tkazish”, “kasalxona”, “vrach”, “yuqumli kasallik”, “tibbiyotimiz”, “hakimlar”, “tangri”, “do‘zax”, “o‘lim elchisi”, “tavba-tazarru qilmoq”, “gunoh”* kabi birliklar stimul so‘z ma'nosidan biroz uzoqroq bo‘lganligi sababli assotsiativ maydonda ham chetki qismga joylashtiriladi. Maydonning chetki qismiga joylashtirilgan assotsiatlar ham stimul so‘z bilan bilvosita aloqaga kirisha olganligi sababli matnning assotsiativ maydonini shakllantirishga xizmat qilaveradi. Masalan *“do‘zax”* assotsiati stimul so‘z bilan quyidagicha aloqaga kirishadi: *“DO‘ZAX” - “gunoh” - "tavba-tazarru qilmoq" – “jon taslim qilmoq” – “o‘lim elchisi” – “o‘lim” – “TOBUT”.* Yoki bo‘lmasa, *“varch”* assotsiati stimul so‘z bilan quyidagicha bog‘lanishini ko‘rishimiz mumkin: *“VRACH” - “hakim” - “tibbiyot” - “emlash o‘tkazish” - “yuqimli kasallik” – “o‘lat” – “kasalxona” – “o‘likxona” – “o‘lik” – “TOBUT”*. Ushbu maydondagi *“arvoh”* assotsiati stimul so‘z bilan “*qabriston*” so‘zi orqali bilvosita bog‘langanligini ko‘rishimiz mumkin. Assotsiatlarning stimul so‘z bilan bilvosita bog‘lanishida lingvistik va ekstralingvistik omillar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Tobut” hikoyasining assotsiativ maydonini quyidagi chizma ko‘rinishida tasvirlash mumkin:



XULOSA

Ko‘rinadiki, ushbu assotsiativ maydonning yadro qismdagi assotsiatlar o‘zlari boshqa mikromaydon hosil qilgan holda boshqa birliklarning ham stimul so‘zga bilvosita bog‘lanishini ta’minlayapti. Ushbu assotsiatlar o‘rtasida bir-birini yodga solish mexanizmi ko‘rinib turibdi. E’tibor berilsa, matn tarkibida *“vahm to‘lib turgandi”, “o‘lim elchisi”, jon taslim qilmoq“* kabi obrazli ifodalar ham mavjud. Ular matnning ta’sir kuchini yana-da oshirgan, o‘ziga xos badiiy tasvirni hosil qilib, matnning semantik yaxlitligini ta’minlashga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Iskandarova Sh. O‘zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o‘rganish (shaxs mikromaydoni): Filo. fan. dok. … diss. avtoref. –T.: 1999. –B 43 (Iskanderova Sh. Studying the lexicon of the Uzbek language as a meaningful field (personal microfield): Filo. science. doc. ... diss. autoref. -T.: 1999. –P 43)
2. Lutfullayeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. Monografiya –T.: Meriyus, 2017. (D.E.Lutfullayeva. Theory of associative linguistics. Monograph –T.: Meriyus, 2017)
3. Xudoyberganova D. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini: Filol.fan. dok. Diss. –T.: O‘z RFATAI. 2015. –B 101(Khudoiberganova D. Anthropocentric interpretation of literary texts in Uzbek language: Philology. doc. Diss. – T.: Own RFATAI. 2015. –P 101)
4. Eshonqul N. Maymun yetaklagan odam. –T.: Yangi nashr, 2019. (Eshanqul N. The man led by the monkey. –T.: New edition, 2019)